

“QIPCHOQ” ATAMASI VA QIPCHOQLAR

Nurmanov Furqat Xayitqulovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

Email: furqatnx@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2895-4717>

Telefon: +998945383565

ANNOTATSIYA

Millatlar va tillar shakllanishi va rivojlanishi o‘ziga xos etnik va lingvistik tarixga ega bo‘ladi. Barcha turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek millatining etnik tarkibida qipchoqlar muhim qatlam sanaladi. Millatning etnik tarixini o‘rganish uning tili lisoniy tarixini o‘rganish bilan birga olib borilishi tadqiqot shartlaridan biri sanaladi. Chunki til millatni shakllantiruvchi va farqlab turuvchi asosiy belgilardan biridir. Biz o‘zbek xalq lahjalaridan biri bo‘lgan qipchoq dialekti haqida bahs yuritishdan oldin turkiy xalq va dunyo tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan qipchoq elatining etnik tarkibi, tarixiy faoliyati, jahon madaniyati va davlatchiligi tarixida tutgan ahamiyati haqida fikr birdirib o‘tmoqchimiz. Shuningdek, ushbu tadqiqotimizda tarixan shakllangan qipchoq adabiy tili manbalari hamda boshqa tarixiy asarlarda ifodalangan qipchoqlar va “qipchoq” atamasi haqida ham mulohaza yuritishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: millat, til, xalq, o‘zbek, turk, turkiy, til, etnos, etnik tarkib, qipchoq, qipchoq adabiy tili, lug‘atlar, tarixiy manbalar, polovets, kun, kuman.

THE TERM “KIPCHAK” AND THE KIPCHAKS

Nurmanov Furkat Khayitkulovich

Doctoral student of

Samarkand State University

under the name of Sharof Rashidov

Email: furqatnx@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2895-4717>

Phone number: +998945383565

ABSTRACT

The formation and development of nations and languages has their own ethnic and linguistic history. The Kipchaks are an important layer in the ethnic composition of all Turkic peoples, including the Uzbek nation. One of the conditions of this research is to study the ethnic history of a nation along with learning the history of its language. Because language is one of the main characters that shape and distinguish a nation. Before discussing the Kipchak dialect, which is one of the Uzbek national dialects, we

would like to discuss the significance of the Kipchak people, which have their own place in the history of the Turkish nation and the world, in the history of their ethnic composition, historical activity, world culture and statehood. Also, in this paper, we will try to reflect on the sources of the historically formed Kipchak literary language, as well as the Kipchaks and the term “Kipchak” expressed in other historical works.

Key words: nation, language, people, Uzbek, Turkic, Turkic language, ethnos, ethnic composition, Kipchak, literary language of Kipchak, dictionaries, historical sources, Cuman, Coon.

ТЕРМИН «КИПЧАК» И КИПЧАКИ

Нурманов Фуркат Хайиткулович

Студент докторантуры

Самаркандского Государственного Университета

имени Шарафа Рашидова

Email: furqatnx@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2895-4717>

Телефон: +998945383565

АННОТАЦИЯ

Формирование и развитие наций и языков имеет свою этническую и языковую историю. Кипчаки — важный слой в этническом составе всех тюркских народов, в том числе и узбекской нации. Одним из условий данного исследования является изучение этнической истории народа наряду с изучением лингвистической истории его языка. Потому что язык — один из главных символов, формирующих и отличающих нацию. Прежде чем говорить о кипчакском диалекте, который является одним из узбекских национальных диалектов, нам хотелось бы обсудить значение кипчакского народа, имеющего свое место в истории турецкого народа и мира, в истории его этнического состава, исторической деятельности, мировой культуры и государственности. Также в данной статье мы попытаемся поразмышлять об истоках исторически сложившегося кипчакского литературного языка, а также о кипчаках и термине «кипчак», выраженном в других исторических трудах.

Ключевые слова: нация, язык, народ, узбек, турки, тюркский язык, этнос, этнический состав, кипчак, литературный язык кыпчаков, словари, исторические источники, половцы, куны, куманы.

Kirish. O‘zbek xalqi qadimiy madaniyat va tarixiy davlatchilikka ega xalq sifatida dunyo tamaddunida o‘ziga xos o‘rni bor. Turkiy xalqlarning katta guruhiga tegishli bo‘lgan o‘zbek xalqining tarkibida, huddi, umumturkiy xalqlarning tarkibida

bo'lgani kabi qipchoqlar muhim o'rin egallaydi. Barcha turkiy ellarni tashkil etuvchi hamma turkiy etnoslar hozirgi o'zbek xalqining tartibida mavjud. qipchoq, o'g'uz, qorluq, chigil va boshqalar. Buni tarixchi-etnolog olimlarning ishlarida ham uchramiz. Shuning uchun ham o'zbek millatini, istisno tarzida, umumturk xalqining kichik ko'rinishi sifatida ta'riflashimiz mumkin. Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi mutafakkir ijodkorlarimiz tomonidan yaratilgan mumtoz asarlarda hamda tarixiy manbalarda ifodalangan "turk", "turk tili", "turk eli" kabi so'z va birikmalardagi "turk" atamasi ham "umumiy turk xalqlari"ni hamda "o'zbek xalqi" ni nazar tutilganini bugungi ilmu-fan, istisnosiz, qabul qilgan. O'zbek xalqining uzoq tarixiy shakllanishida muhim etnik element hisoblangan qipchoqlar dunyo davlatchilik tarixida muhim ahamiyat kasb etgan bir etnik guruhdir.

Tadqiqot. Turkiy tillar oilasiga kiruvchi qipchoqlar Dashti Qipchoqdan (Bugungi Xitoy. Mo'g'iliston, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston hududlaridan tortib) to Qora dengiz sohillardan Markaziy Yevropagacha bo'lgan joylarda yashagan xalq hisoblanadi. Islom manbalarida "qipchoq", "qifchoq" shaklida, Yevropada, asosan, "koman", "kuman", "kun" (ya'ni "jigarrang" ma'nosida), nemislar Palladi va Valven, armanlar Xarteshkn va xipchax¹ (խրիշախի դիլի, չիբճախ tili) deb atashgan, ruslar "poloves" (ya'ni moviy yoki osmon rangli ko'zlar) ko'rinishida ifodalangan qipchoqlar hozirgi kunda "o'lik til" sanaluvchi o'z tillarida gaplashishgan va uning manbalari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Ilm ahlining doimiy e'tiborida bo'lgan bunday yozma yorgorliklar sifatida Mahmud Koshg'ariy lug'ati materiallari, 13-asrgacha bo'lgan rus solnomalarida uchraydigan atoqli otlar va toponimlar, 13-14-asrlarda Misrda tuzilgan, muallifi noma'lum turkiycha-arabcha lug'atni ("Tarjumoni turki va ajami va mug'ali"), Abu Hayyonning "Kitob ul-idrok lilison ul-atrok" ("Turkiy tillarni o'rganish kitobi", 1313), Jamoliddin Turkiyning "Kitobu bulg'ot ul-mushtoq fil-lug'ot it-turk val-qifchoq" ("Turk va qipchoq tillarini xohlovchilar uchun mukammal kitob", 14-15-asrlar), noma'lum muallifning "Kitob attuhfat uzzakiyyata fil lug'at it-turkiyya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa", 14-asr) kabi lug'atlarni ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, italyan va nemis monaxlari tomonidan tuzilgan va fanda "Kodeks Kumanikus" deb nom olgan, 2994 so'zli lotincha-forscha-qipchoqcha lug'at, "Yangi ahd"dan parchalar hamda duolar tarjimasi va 50 ta topishmoqdan iborat bo'lgan asari ham saqlanib qolgan bo'lib, 1294-yilda yaratilgan bu asarni 1880-yilda Budapeshtda G.Kun nashr ettirgan². Ushbu manbalarda keltirilgan qipchoq (yoki kuman, kun, poloves) nomi qabila, xalq mazmunini ifodalaydi. Shunday holatni To'nyuquq (726-yilda bitilgan), Bilga Hoqon (735-yilda bitilgan), Elatmish Bilga Hoqon (760-yilda

¹ Buranov A. Turkiyda nashr etilgan birinchi kitob, arman qipchoq tilida yozilgan nasroniy bitiklar – o'zbek tadqiqotchilarini kutib yotgan noyob manbalar. <https://oyina.uz/uz/article/1473>

² Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2-жилд. -Т.: Миллий энциклопедия, 2000, 149-150-б.

bitilgan) kabi bitiktoshlarda ham uchratishimiz mumkin³. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida *Kivcak* shaklda keladi va u 3 ta holat uchun qo‘llaniladi: turklarning katta bir guruhi; Ular yashaydigan hudud; Qoshg‘ar yaqinidagi joy nomi⁴. Muallifi noma‘lum bo‘lgan “Kitob attuhfat uzzakiyyata fil lug‘at it-turkiyya” (“Turkiy til haqida noyob tuhfa”) asari XIV asrda yozilgan bo‘lib, unda qipchoq tiliga oid ma‘lumotlar keltirilgan. Dunyo tarixida katta mavqega ega bo‘lgan Mamluk turklari davlatida qipchoqcha davlat tili edi. Manbalarda “mamluk turklari”, “mamluk qipchoqlari” deb ataladigan davlat 1250-1517-yillar davomida Misr va Suriya hududlarida hukmronlik qilgan turkiy qipchoq sulolasi hisoblanadi⁵. Ilm-fan va madaniyat rivojlangan ushbu davlatda qipchoq tili yuksak mavqega ega bo‘lib, ko‘plab tarixiy asarlar shu tilda yozilgan. Noma‘lum muallif tomonidan bitilgan asar zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan qisqaqcha “Tuhfa” deb yurililadi. Ushbu asarning o‘zbek tiliga yaqinligi, shubhasiz, mavjud. Chunki hozirgi o‘zbeklarning katta bir qismi qipchoqlar degan bir xalqlarning tarkibida bo‘lganidek, o‘zbek tili ham o‘sha qadimgi qipchoq tilining bevosita vorislaridan biri bo‘lib hisoblanadi⁶. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, turkiy tillarda mavjud barcha el-elat va qabilalar lahjalarining xususiyatlari o‘zbek tilida mujassam. Ya’ni eski qipchoq yozma til va dialektlarining, shuningdek, zamonaviy turkiy tillarda, jumladan, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tatar, boshqird tillarida mavjud bo‘lgan qipchoq elementlari milliy tilimiz qipchoq lahjasida mavjud.

Tahlil. Manbalarda “qipchoq” so‘zining paydo bo‘lishi va mazmuni haqida ayrim fikrlar ham keltirib o‘tilgan. Etimologik tadqiqotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “Qadimgi turkiy til lug‘ati”da qipchoq so‘zi *qivčaq, qovī, qovuq*⁷ shaklida ifodalangan. Mashhur turkolog Piter Goldenning tadqiqotlarida turli tildagi manbalarda qipchoq so‘zi quyidagicha ifodalanganligini ko‘rsatadi: islom manblarida - *kbdjak, kfdjak, xfdjak, xifshax, xifdjax*; armanlar – *xbshax*; gruzinlar - *kivch’aki*; mo‘g‘ullar - *kibsaf, kimsa*; xitoylar - *kimcha, kefucha, kebichas* shaklida keltirib o‘tgan. Shuningdek, olim tadqiqotlarda keltirilgan “qipchoq” so‘zining “och sariq dasht xalqi” mazmunidagi etimologiyasini ishonchli emas deb baholaydi. “Kuman” so‘zi esa “kun+man” egalik shaxsni ifodalashini taxmin qiladi. Ammo bu taxminni asoslaydigan dalillar shunchaki yetali emasligini ham alohida qayd etadi⁸. Qadimgi turkiy xalqlar, jumladan, qipchoqlar och sariq, bug‘doyrang bo‘lganligi, “man” so‘zi odam, shaxs ma’nosini

³ Кляшторный С.Г. Кипчаки в рунических памятниках // *Turcologica*, 1986. К восьмидесятилетию академика А.Н. Кононова. Л.: 1986. С. 153-164.

⁴ Кошғарий М. Девону луғоти-т-турк. (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Содиқов Қ. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2017, -488 б.; Gökbel A. Kıpçak Türkleri Siyasî Ve Dinî Tarihi. - Ankara: Ötüken Neşriyat A.Ş. 2020, -B.35

⁵ <https://history-maps.com/uz/story/Mamluk-Sultanate> (2023, sentabr).

⁶ Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. -Тошкент: 1976, -Б.34.

⁷ Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. 1974. – М. : Наука, 1974. с. 449, 451, 462.

⁸ Голден П.Б. Формирование куман-кыпчаков и их мира (Перевод с английского Н.И.Храпунова). 2001, -с. 458-480. <http://dSPACE.nbuv.gov.ua/bitstream/handle/123456789/170149/25-Golden.pdf?sequence=1> (2023, sentabr).

ma'nosini ifoda etganini inobatga olsa, ushbu etimologik taxmin birmuncha o'zini oqlashini ta'kidlash lozim. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, *qyvčaq*, *qybčaq*, *qibchak*, *xifchak* shaklida ko'kturk bitiktoshlarida uchraydigan bu so'z *muvofaqqiyotsiz*, *omadsiz*, *bo'sh*, *baxtsiz* ma'nosida qo'llanilgan. Rus olimi S.G.Klyashtorniyning ma'lumotiga ko'ra bosib olingan yerlarda 50 yilcha ittifoqchi sifatida yashab, Otekendan quvilgan qabila nomi sifatida izohlanadi. Etnonimning semantikasi shaffof va murakkab tahlilni talab qilmaydi. Umumiy sifatning etnonimik substantivlashuv sabablarini aniqlash qiyinroq. Ismning shakllanishi qabilaning etnik o'zini o'zi anglashining o'zgarishi bilan bog'liqmi, natijada yangi avtoetnonim paydo bo'ldi? Yoki eski etnonim asta-sekin alloetnonimga, ya'ni boshqa qabila guruhi lug'atidan tashqaridan olingan nomga almashtiriladimi? Ko'rinishidan, tushuntirish diniy-sehrli tafakkurning eng universal xususiyatlaridan biri - borliq va uning nomi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik g'oyasida yotadi. Xususan, turkiy va mo'g'ul xalqlarida hali ham bir vaqtlar juda katta tumorlar sinfi mavjud. Shunday qilib, bolalarga yoki kattalarga, odatda, oldingi bola yoki oila a'zosi (klan) vafot etgandan so'ng, shuningdek, og'ir kasallik yoki o'lim xavfidan so'ng, kamsituvchi ma'noga ega bo'lgan talismanik ism yoki yangi himoya nomi beriladiki, shaxsni (oilalari, urug') ta'qib qilayotgan g'ayritabiiy kuchlarni yo'ldan ozdirishga qaratilgan. Balki shuning uchundir, *baxtsizlik*, *omadsizlik* mazmunida shunday nom berilgandir, ehtimol. Mangutoshlarda bu so'zning "*qyvčaq qovy*" / "*qybčaq qoby*" shaklida turg'un juft birikmalarda qo'llanilgan mazmuni "*bo'sh*", "*arzimaydi*" ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, "*qoby*" / "*qovy*" bilan o'zagi bir, ma'nosi bir xil bo'lgan "*qovuq*" / "*qobuq*" so'zi kelib chiqadi⁹. Mirzo Ulug'bek tomonidan yozilgan "To'rt ulus tarixi" asarida qipchoq atamasi "qibchoq" shaklida ifodalangan. "...qibchoq (nomi) qabuq so'zidan olingan. Qabuq bir daraxtning nomidir. U daraxt tanasi ichi kovak bo'ladi. Po'stidan tashqari ko'klik yo'qdir. Yog'ochning ichi chirigan, g'ovak bo'lgan bo'ladi. ...O'g'uzxon dusmani dastidan o'ldirilgan askarning xotini shu daraxning g'ovagida o'g'il tug'adi. O'sha o'g'il bolani farzandlikka qabul qiladi va Qibchoq deb nom beradi. Bugungi kundagi qibchoq qavmini uning bir o'g'il naslidan deb biladilar"¹⁰. Bir necha tadqiqotlarda, jumladan, Abulg'ozil Bahodirxon "Shajarai turk" asarida "Xon aydi: "Muning otasi bizning oldimizda o'ldi. G'amxo'ri yo'q", teb. O'g'ul o'kundi, otini Qipchoq qo'ydi. Qadim turk tilinda ichi qo'sh yog'ochni qipchoq derlar erkandur. Aning uchun ul o'g'lon yog'och ichinda tug'di deb, otin qipchoq qo'yidilar. Bu vaqtda ham ichi qo'sh yog'ochni (*balki ichi bo'sh yog'ochdir. Izoh muallifniki*) qipchoq deytururlar"¹¹ deb qayd etadi. Fonetik qonuniyatlar asosida o'zgarishga uchragan "*qovuq*" / "*qobuq*" so'zi

⁹ Кляшторный С.Г. Кипчаки в рунических памятниках // *Türccologica*, 1986. К восьмидесятилетию академика А.Н.Кононова. Л.: 1986. С. 153-164.

¹⁰ Мирзо Улуғбек Тўрт улус тарихи. –Тошкент: Чўлпон. 1994, 50-51-бетлар.

¹¹ Абулғози Баҳодирхон Шажарай турк. -Тошкент: Чўлпон, 1992. 76-бет.

zamonaviy tilimizda qobiq/qoviq talaffuz etiladi va yoziladi. Bu soʻzning semantikasida *boʻsh*, *boʻmboʻsh*, *arzimas* kabi maʼnolar borligini hisobga olib, “qipchoq” soʻzining etimologiyasi qobiq, daraxtning qobigʻ shaklidan kelib chiqqan deyishimiz mumkin. Ammo P. Golden mulohasida keltirilganidek, asosli dalillar yetarli emas, sayoz koʻrinadi, fikrimizcha. Shuningdek, “qipchoq” atamasining “kipsak” shakli ham adabiyotlarda keltirilgan. “Kipsak” da “sak” qadimiy turkiy xalqlardan biri sanaladi. Qadimgi Yunon manbalarida tarixiy asarlarda qayd etilgan “Buyuk Dashti Qipchoq” da *sak* degan turkiy xalqlar yashagani haqidagi qaynoqdan ham anglashimiz mumkin. Yaʼni, “dashtda, sahroda yashovchi saklar” shaklida taxmin qilishimiz mumkin. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da berilgan “qip (-yalongʻoch)” soʻzining semasida “hech narsa oʻsmagan, dov-daxtsiz”, “bironta ham bargi yoʻq, bargi batamom toʻkilgan”, “hech narsasi yoʻq” mazmunlari ham borligini hisobga olsak, “qipchoq” atamasi “kipsak” shaklida “qip yalongʻoch, hech narsa bitmaydigan dashtda yashagan saklar” mazmunidan kelib chiqqan boʻlishi mumkin. Buni yuqorida taʼkidlagan mulohazalarimizga, maʼlum maʼnoda, toʻgʻri keladi. “Qip” shaklining “kir”ga oʻzgarishini “q” tovushi qoʻllanilmaydigan turkiy va turkiy boʻlmagan tillar mahsuli ekanligini anglash qiyin emas, bizningcha. Ammo bu atamani dalillash uchun faktlar kuchsiz. Turk tilining bitiktoshlardan tortib bugungi kunga qadar qoʻllanilgan soʻzlardan iborat “Büyük Türkçe Sözlük” lugʻatining 3263-sahifasida qipchoq soʻzi quyidagicha izohlangan: 1. Daraxt kovagi; 2. Past tekislik, tekislik; 3. Taqir yer. Yuqorida keltirilgan lugʻat va manbalardan koʻrinib turibdiki, qipchoq atamasi haqida fanda aniq bir toʻxtamga kelinmagan. Bu onimning turlicha yozilishi va talaffuzi, ha, boshqa tillardagi shakliga binoan har xil mazmunni ifoda etmoqda.

Xulosa. Umuman, yuqorida tahlilga tortgan manbalarimiz asosida qipchoq nomining kelib chiqish tarixini quyidagicha izohlashimiz mumkin: dastlab “daraxt va uning kovagi” mazmunidan antroponim hosil boʻlgan, keyinchalik “taqir, yayloq tekislik” va “unda yashovchilar” maʼnosidan toponim va etnonim paydo boʻlgan.

ADABIYOTLAR

1. Buranov A. Turkiyda nashr etilgan birinchi kitob, arman qipchoq tilida yozilgan nasroniy bitiklar – oʻzbek tadqiqotchilarini kutib yotgan noyob manbalar. <https://oyina.uz/uz/article/1473>.
2. Gökbel A. Kıpçak Türkleri Siyasî Ve Dinî Tarihi. -Ankara: Ötüken Neşriyat A.Ş. 2020, -B.35
3. <https://history-maps.com/uz/story/Mamluk-Sultanate> (2023, sentabr).
4. Абулғози Баҳодирхон Шажарай турк. -Тошкент: Чўлпон, 1992. -Б. 192.
5. Голден П.Б. Формирование куман-кыпчаков и их мира (Перевод с английского Н.И.Храпунова). 2001, -с. 458-480. <http://dspace.nbu.gov.ua/bitstream/handle/123456789/170149/25-Golden.pdf?sequence=1> (2023, sentabr).

6. Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. -Тошкент: 1976, Тошкент: 1976, -Б.34.
7. **Кляшторный С.Г. Кипчаки в рунических памятниках // Türcologica, 1986. К восьмидесятилетию академика А.Н. Кононова. Л.: 1986. С. 153-164.**
8. Кошғарий М. Девону луғоти т-турк (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2017, -488 б.
9. Мирзо Улуғбек Тўрт улус тарихи. –Тошкент: Чўлпон. 1994, -Б. 352. (Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. -Toshkent: Cho‘lpon. 1994, -B.352.).
10. Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. 1974. – М. : Наука, 1974. – 767 с.
11. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдли, 2-жилд. -Т.: Миллий энциклопедия, 2000, -680 б.
12. Scientific Journal Impact Factor 2023: 5.789
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10019387>
13. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4082>
14. South Asian Jouonal of Maoketing hManagement Reseaoch (SAJMMR)
15. Uzbek language about linguistic nature of auxiliary words
16. Connective Words (Prepositions, Conjunctions and Particles) in “Divanu–Lugotit-Turk”(Dictionary of All Turkic Languages) of Mahmud Kashgari
17. Dialect classification of certain dialectisms in the “annotated dictionary of the uzbek language”
18. Analysis Of Some Lexemas Of The Kipchok Dialect And Their Linguistic Characteristics In The" Explanatory Dictionary Of The Uzbek ...
19. On the linguoculturological study of some dialecticisms in the “annotated dictionary of the uzbek language